



## Boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyatli o'z-o'ziga munosabat shakllanishining psixologik mexanizmlari va ijtimoiy determinantlari

**Isaxanova Moxidil  
Erkinovna**

*QDU o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda qadriyatli o'z-o'ziga bo'lgan munosabat shakllanishining psixologik xususiyatlari nazariy jihatdan tahlil qilingan. "O'z-o'ziga munosabat", "qadriyat", "qadriyatli munosabat", "o'zini baholash", "o'zini anglash" kabi tushunchalarning psixologik mazmuni ochib berilgan hamda kichik maktab yoshidagi bolalarda qadriyatli o'z-o'ziga munosabat shakllanishining asosiy psixologik mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, mazkur jarayonga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar, ichki va tashqi determinantlar hamda ta'lim-tarbiya jarayonida ushbu sifatni rivojlantirishning ilmiy-amaliy yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** kichik maktab yoshi, qadriyat, qadriyatli munosabat, o'z-o'ziga munosabat, o'zini anglash, o'zini baholash, "Men" konsepsiyasi, shaxs rivojlanishi, psixologik xususiyatlar.

**Аннотация:** В данной статье теоретически проанализированы психологические особенности формирования ценностного отношения к себе у учащихся младшего школьного возраста. Раскрыто психологическое содержание таких понятий, как «отношение к себе», «ценность», «ценностное отношение», «самооценка», «самосознание», а также освещены основные психологические механизмы формирования ценностного отношения к себе у детей младшего школьного возраста. Кроме того, рассмотрены социально-психологические факторы, внутренние и внешние детерминанты, влияющие на данный процесс, а также представлены научно-практические направления развития данного качества в процессе обучения и воспитания.

**Ключевые слова:** младший школьный возраст, ценность, ценностное отношение, отношение к себе, самосознание, самооценка, Я-концепция, развитие личности, психологические особенности.

**Abstract:** In this article, the psychological characteristics of the formation of a value-based self-attitude among primary school students are theoretically analyzed. The psychological content of such concepts as "self-attitude," "value," "value-based attitude," "self-esteem," and "self-awareness" is revealed, and the main psychological mechanisms of the formation of a value-based self-attitude in children of primary school age are highlighted. In addition, the socio-psychological factors, internal and external determinants influencing this process are examined, and scientific and

practical directions for developing this quality in the process of education and upbringing are presented.

**Keywords:** primary school age, value, value-based attitude, self-attitude, self-awareness, self-esteem, self-concept, personality development, psychological characteristics, primary education.

Zamonaviy ta'lim tizimida shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, uning ichki dunyosini boyitish va o'zini anglash darajasini oshirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zini qadrlash va ijobiy "Men" tasavvurini shakllantirish masalasi muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu davrda bola o'z shaxsiga nisbatan dastlabki barqaror munosabatni shakllantira boshlaydi.

Boshlang'ich maktab yoshi bolaning yangi ijtimoiy muhitga kirib borishi, yangi talab va me'yorlarni o'zlashtirishi bilan xarakterlanadi. Bola maktabga kirishi bilan o'zini nafaqat oila a'zosi, balki o'quvchi sifatida ham anglay boshlaydi. Bu esa uning o'zini baholashiga, o'z imkoniyatlarini anglashiga va o'zini boshqalar bilan taqqoslashiga olib keladi.

Mazkur yosh davrida shakllangan o'z-o'ziga munosabat bolaning keyingi shaxsiy rivojlanishi, o'quv motivatsiyasi va ijtimoiy faolligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zini qadrlash va ijobiy "Men" tasavvurining shakllanish mexanizmlari hamda unga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Qadriyatli o'z-o'ziga bo'lgan munosabat shaxsning o'zini shunchaki idrok etishi emas, balki o'zini muhim, qadrli, hurmatga loyiq va rivojlanishga qodir subyekt sifatida qabul qilishi bilan tavsiflanadi. Bunday munosabatning shakllanishi kichik maktab yoshidayoq boshlangan taqdirda, bola o'z imkoniyatlariga nisbatan ishonchliroq, faolroq va mas'uliyatliroq bo'lib voyaga yetadi. Aksincha, o'ziga nisbatan salbiy, beqaror yoki qadrsizlantiruvchi munosabat keyinchalik ijtimoiy tortinchoqlik, o'quv motivatsiyasining pasayishi, tashqi bahoga haddan tashqari bog'lanish va ichki ziddiyatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Shaxsning o'z-o'ziga bo'lgan munosabati muammosi psixologiya fanida keng o'rganilgan yo'nalishlardan biridir. Umumiy va rivojlanish psixologiyasi doirasida mazkur masalaga oid turli ilmiy yondashuvlar shakllangan. L.S.Vigotskiy shaxsning psixik rivojlanishini ijtimoiy-tarixiy tajribaning o'zlashtirilishi bilan bog'lab, bolaning o'zini anglash jarayoni ham ijtimoiy munosabatlar tizimida tarkib topishini ta'kidlagan. Uning nuqtai nazariga ko'ra, bola dastlab o'ziga boshqalar munosabati orqali baho beradi, keyinchalik esa mazkur baholarni ichkilashtirib, shaxsiy o'zini anglash tuzilmasini yaratadi.

A.N.Leontev faoliyat nazariyasi doirasida shaxs rivojlanishining asosiy omili sifatida faoliyatni ko'rsatadi. Uning qarashlariga ko'ra, bola o'zini faoliyat subyekti sifatida anglash jarayonida o'z imkoniyatlari, yutuqlari va kamchiliklari haqida ma'lum tasavvurlar hosil qiladi. Bu jarayon, ayniqsa, o'quv faoliyati yetakchi bo'ladigan kichik maktab yoshida kuchli namoyon bo'ladi.

S.L.Rubinshteyn shaxsni faol va munosabatlar tizimiga kirishgan mavjudot sifatida talqin etib, o'z-o'ziga munosabatni shaxsning boshqa munosabatlari bilan uzviy bog'liq tizim sifatida ko'radi. Uning yondashuvi bo'yicha insonning o'ziga

munosabati tashqi ta'sirlarni passiv aks ettirish emas, balki ularni subyektiv qayta ishlash va ichki mazmun bilan boyitish natijasidir.

Zamonaviy psixologiyada "Men" konsepsiyasi, o'zini baholash, o'zini anglash va o'z qadrini his etish muammolari R.Berns, K.Rojers, U.Jeyms kabi olimlar tomonidan ham tahlil etilgan. Ularning qarashlarida insonning o'ziga munosabati uning shaxsiy farovonligi, motivatsiyasi va ijtimoiy faoliyati uchun markaziy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Mahalliy psixologik tadqiqotlarda ham bolalik davrida o'zini anglash, shaxsiy qadriyatlar, o'z-o'zini baholash va tarbiyaviy ta'sirning roliga oid muammolar o'rganilgan. Bunday ishlarda maktab muhiti, pedagogik muloqot, oilaviy munosabatlar va o'quv faoliyatining o'quvchi shaxsiga ta'siri muhim omil sifatida qayd etiladi. Biroq kichik maktab yoshida aynan qadriyatli o'z-o'ziga munosabat shakllanishining psixologik mexanizmlarini maxsus yoritish hali ham dolzarbligicha qolmoqda.

Kichik maktab yoshi odatda 7-10 yosh oralig'ini qamrab olib, bolaning maktabga kirishi bilan yangi psixologik taraqqiyot bosqichi boshlanadi. Bu davrning asosiy xususiyati shundaki, bolaning hayotida o'quv faoliyati yetakchi mavqega ega bo'ladi. O'qish jarayonida u yangi bilimlarni o'zlashtirish bilan birga, qoidalar asosida yashash, natijani kutish, xulqini boshqarish, ijtimoiy bahoni qabul qilish va o'zini nazorat qilishni ham o'rganadi.

Mazkur yoshda bolaning kognitiv jarayonlari, ayniqsa, tafakkur, diqqat, xotira va nutq faol sur'atlarda rivojlanadi. Shu bilan birga, hissiy sohada ham muhim o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bola o'z kechinmalarini yanada aniqroq tushunadi, uyat, faxr, ranjish, muvaffaqiyat hissi kabi murakkab emotsional holatlarni boshdan kechira boshlaydi. Bu esa o'z-o'ziga bo'lgan munosabatning emotsional poydevorini shakllantiradi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun kattalar, ayniqsa, o'qituvchi fikri juda katta ahamiyatga ega. O'qituvchi tomonidan berilgan baho bola uchun nafaqat topshiriq natijasining ko'rsatkichi, balki ko'pincha o'z shaxsiy qadrlining mezoniga ham aylanadi. Shu sababli ushbu yoshda tashqi baho va ichki o'zini baholash o'rtasidagi munosabat alohida psixologik ahamiyatga ega.

Mazkur davrda bola tengdoshlar jamoasida ham o'z o'rnini topishga harakat qiladi. Jamoada qabul qilinish, e'tirof etilish, birgalikdagi faoliyatda ishtirok etish uning o'ziga bo'lgan munosabatini mustahkamlaydi. Demak, kichik maktab yoshi o'zini anglash, o'z qadrini his etish va qadriyatli o'z-o'ziga bo'lgan munosabatning shakllanishi uchun qulay, ayni paytda sezgir davr hisoblanadi.

Qadriyatli o'z-o'ziga bo'lgan munosabat shaxsning o'zini muayyan qadr-qimmatga ega mavjudot sifatida qabul qilishi, o'zining ichki imkoniyatlari, axloqiy fazilatlari va ijtimoiy ahamiyatini his etishi bilan tavsiflanadi. Bu tushuncha oddiy o'zini baholashdan kengroq bo'lib, unda kognitiv, emotsional va motivatsion komponentlar bir butun holda namoyon bo'ladi.

Kognitiv jihatdan qadriyatli o'z-o'ziga munosabat bolaning o'zi haqidagi tasavvurlari bilan bog'liq. Bola "men qandayman?", "men nimalarga qodirman?", "men boshqalardan nimam bilan farqlanaman?" kabi savollarga javob izlash orqali o'z "Men" obrazini shakllantiradi. Emotsional jihatdan esa u o'zini qabul qilish, o'zidan mamnun bo'lish, o'ziga nisbatan iliq his-tuyg'ularni boshdan kechirishda ifodalanadi.

Motivatsion jihatdan bunday munosabat bolaning o‘z ustida ishlashga, muvaffaqiyatga intilishga, o‘z qadrini saqlashga va ijobiy xulq-atvorni namoyon etishga undaydi.

Qadriyatli o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatning muhim belgilaridan biri shundaki, bola o‘zini faqat muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz natijalar orqali emas, balki shaxs sifatida qadrlil deb his qila boshlaydi. Bu esa tashqi baholarning keskin tebranishlariga qaramay, ichki psixologik barqarorlikni ta‘minlaydi. Bunday bolalarda o‘ziga ishonch, o‘zini hurmat qilish, ijobiy tashabbuskorlik va muloqotga kirishish faolligi yuqoriroq bo‘ladi.

Qadriyatli o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabat shakllanishining psixologik mexanizmlari:

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda mazkur sifatning shakllanishi bir qator psixologik mexanizmlar orqali amalga oshadi. *Birinchi mexanizm* - identifikatsiya. Bola o‘ziga yaqin kattalar, ayniqsa, ota-ona va o‘qituvchi namunasi asosida o‘ziga munosabat shaklini o‘zlashtiradi. Agar kattalar bolaga hurmat, ishonch va qo‘llab-quvvatlash bilan yondashsalar, u ham asta-sekin o‘ziga shunday munosabatda bo‘lishni o‘rganadi.

*Ikkinchi mexanizm* - interiorizatsiya, ya‘ni tashqi baho va munosabatlarning ichki psixologik tuzilmalarga aylanishidir. O‘qituvchi yoki ota-onaning “sen eplay olasan”, “sen harakat qilsang, albatta uddalaysan”, “sen yaxshi bolasan” kabi baholari bolaning ichki o‘zini qadrlash mezoniga aylanadi. Aksincha, muntazam tanbeh, taqqoslash va kamsitish o‘ziga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirishi mumkin.

*Uchinchi mexanizm* - refleksiya elementlarining rivojlanishi. Kichik maktab yoshida bola hali chuqur reflektiv tahlilga to‘liq qodir bo‘lmasa-da, o‘z xatti-harakatlari va natijalari haqida fikr yuritishga kirishadi. U nega maqtaldi, nega tanbeh eshitdi, boshqalar undan nimani kutmoqda degan savollar orqali o‘zini anglash jarayonini boshdan kechiradi.

*To‘rtinchi mexanizm* - ijtimoiy taqqoslash. Bola o‘zini boshqa o‘quvchilar bilan qiyoslaydi, kimningdir muvaffaqiyatidan ruhlanadi yoki aksincha, o‘zini kamroq qadrlil deb his qilishi mumkin. Shu jihatdan pedagogik jarayonda o‘quvchilarni bir-biri bilan keskin solishtirish emas, balki shaxsiy yutuqlari dinamikasi asosida baholash maqsadga muvofiqdir.

Qadriyatli o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabat shakllanishiga ta‘sir etuvchi omillar:

Mazkur jarayonga ta‘sir etuvchi omillarni shartli ravishda oilaviy, maktabga oid, shaxsiy va ijtimoiy omillarga ajratish mumkin.

Oilaviy omillar orasida emotsional qo‘llab-quvvatlash, mehr, hurmat, ishonch va tarbiyadagi izchillik alohida ahamiyatga ega. Ota-onaning bolani qadrlashi, uning fikrini tinglashi, yutuqlarini e‘tirof etishi va xatolarini shaxsiyatiga tegmagan holda tushuntirishi o‘ziga ijobiy munosabat shakllanishi uchun qulay zamin yaratadi. Aksincha, doimiy tanqid, boshqa bolalar bilan solishtirish, sovuqqonlik yoki ortiqcha talabchanlik bolada o‘zini qadrsiz his etish ehtimolini kuchaytiradi.

Maktab omillari ichida pedagogik munosabat uslubi muhim o‘rin tutadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining bolaga bo‘lgan munosabati, baholash madaniyati, rag‘batlantirish usuli va sinfdagi psixologik iqlim o‘quvchining o‘zini anglashiga kuchli ta‘sir qiladi. O‘qituvchi bola muvaffaqiyatini ko‘ra olsa, kichik yutug‘ini ham

qadrlasa va xatoni rivojlanish imkoniyati sifatida izohlasa, bu bolaning qadriyatli o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini mustahkamlaydi.

Shaxsiy omillar qatoriga bolaning temperament xususiyatlari, hissiy sezgirligi, o'zlashtirish sur'ati, kommunikativ faolligi va irodaviy sifatlari kiradi. Ayrim bolalar tashqi bahoni juda chuqur qabul qiladi, boshqalari esa nisbatan barqarorroq bo'ladi. Shu bois har bir o'quvchiga individual yondashuv muhimdir.

Ijtimoiy omillar esa kengroq muhit - tengdoshlar, mahalla, ommaviy axborot vositalari va umumiy madaniy qadriyatlar bilan bog'liq. Bola o'zini qaysi mezonlar asosida baholashni jamiyatdan o'rganadi. Agar ijtimoiy muhitda inson qadr-qimmati, hurmat, mehr, hamkorlik va adolat qadrlansa, bu bolada ham ijobiy o'z-o'ziga munosabat shakllanishiga yordam beradi.

Mazkur yoshda qadriyatli o'z-o'ziga bo'lgan munosabat bir necha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, bola o'z muvaffaqiyati va imkoniyatlariga nisbatan ishonch bildiradi. U topshiriqlarni bajarishda faolroq ishtirok etadi, xatodan haddan tashqari qo'rqmaydi va harakat qilishga intiladi. Ikkinchidan, bola o'z shaxsiyatiga nisbatan iliq hissiyotga ega bo'ladi, ya'ni o'zini yomon, keraksiz yoki qobiliyatsiz deb emas, balki rivojlanayotgan va qadrlil mavjudot sifatida qabul qiladi.

Uchinchidan, bunday bolalarda muloqotga kirishish faolligi yuqoriroq bo'ladi. Ular tengdoshlari bilan hamkorlikka kirishadi, o'z fikrini aytishdan kamroq tortinadi, ijtimoiy rollarni egallashga intiladi. To'rtinchidan, qadriyatli o'z-o'ziga bo'lgan munosabat bolaning axloqiy xatti-harakatlarida ham aks etadi. O'z qadrini his qilgan bola boshqalar qadrini ham tan olishga moyil bo'ladi, chunki u hurmat va qadriyatni avvalo shaxsiy tajribasida his etadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda qadriyatli o'z-o'ziga bo'lgan munosabatni shakllantirish uchun ta'lim jarayonida bir qator ilmiy-amaliy yondashuvlarni qo'llash lozim. Avvalo, bolaga shaxs sifatida hurmat bilan yondashish tamoyili ustuvor bo'lishi kerak. Pedagogik muloqotda bolaning faqat natijasi emas, sa'y-harakati, intilishi va ichki imkoniyatlari ham qadrlanishi zarur.

Boshlang'ich ta'limda muvaffaqiyatli ijobiy vaziyatlarini yaratish alohida ahamiyatga ega. Bola kichik yutuqlarni boshdan kechirishi, o'zini uddalay oladigan subyekt sifatida his qilishi kerak. Shuningdek, baholashda faqat kamchilikni ko'rsatish emas, ijobiy jihatlarni ham ko'ra bilish o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Oila bilan hamkorlikni kuchaytirish ham muhim yo'nalishlardan biridir. Ota-onalarga bolaning o'ziga bo'lgan munosabatiga ta'sir etuvchi omillar haqida psixologik tavsiyalar berish, oilada ijobiy emotsional muhit yaratish, bolani boshqalar bilan emas, o'zining avvalgi holati bilan solishtirishga o'rgatish foydali hisoblanadi.

Bundan tashqari, sinf jamoasida hamkorlik, o'zaro hurmat, yordam va qabul qilish madaniyatini shakllantirish lozim. Ijtimoiy xavfsiz muhitda bola o'zini erkinroq namoyon etadi va bu uning ijobiy "Men" obrazini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf yoshi o'zini qadrlash va ijobiy "Men" tasavvurining shakllanishi uchun muhim va qulay davr hisoblanadi. Ushbu davrda shakllangan o'z-o'ziga munosabat bolaning keyingi rivojlanishi, o'qishdagi muvaffaqiyati va ijtimoiy faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur jarayon psixologik mexanizmlar hamda oilaviy, pedagogik va ijtimoiy omillar ta'siri ostida shakllanadi. Shu bois ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining shaxsini hurmat qilish, uning individual imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlash va ijobiy psixologik muhit yaratish muhim ahamiyatga ega.

Natijada o'zini qadrlaydigan, o'ziga ishonadigan va faol shaxsni shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar / References**

1. Piaget J. (1972). The psychology of the child. New York: Basic Books.
2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Leontiev, A.N. (1981). Problems of the Development of the Mind. Moscow: Progress Publishers.
4. G'oziyev Ye. "Ontogenez psixologiyasi".- Monografiya. T.: Noshir. 2010
5. Nishanova Z. Kamilova N.va bosh. "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya". Darslik. T.: 2018
6. Xalilova N. "Psixologiya nazariyasi va tarixi"- Darslik. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021
7. Atadjanov M. Saliyeva D. Jurayev N. "Psixologiya tarixi" T.: Innovatsiya-Ziyo. 2022
8. Isaxanova M.E. "Formation of self-esteem in small school-age students" - ISSN 2277-3630, Published by International journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research., under Volume: 12 Issue: 06 in June-2023
9. Isaxanova M.E. "The role of the teacher in the development of self-esteem in primary school students" - **Galaxy International Interdisciplinary Research Journal** Kurukshetra, Hariyana, India-136118. 2023
10. Isaxanova M.E. "Psychological impact of national values on the maturation of a child's personality" - *AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education Volume 02, Issue 12, 2024*
11. Isaxanova M.E. "Psychological features of the formation of value-based self-attitude in primary school students"- *Nanotechnology Perceptions ISSN 1660-679 Nanotechnology Perceptions* 20 No. S14 (2024) 3383-3387
12. Isaxanova M.E. "Psychological approaches to the formation of moral values of primary school students"- *European science international conference: Modern educational system and innovative teaching solutions vol. 2 No. 2 (2025)*